



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ *ning*

20__-20__-o'quv yilida
8-sinflar uchun ona tili fanidan
IV chorak

DARS
ISHLANMALAR

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf ona tili fanidan
IV chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	“Yaxshilikni o‘z vaqtida qil” matni ustida ishlash	1		
2.	Joy nomlari imlosi	1		
3.	Ko‘chirma gap va o‘zlashtirma gap	1		
4.	Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchi	1		
5.	“Millionlarga yo‘ldosh platforma” matni ustida ishlash	1		
6.	Evfemizm	1		
7.	Bog‘lovchilar	1		
8.	Yuklamalar	1		
9.	“Vijdon kerakdir insonga” (audiomatn). Tinglab tushunish topshiriqlari	1		
10.	Intervyu olish (ijodiy ish)	1		
11.	“O‘zlikni anglash zavqi” matni ustida ishlash	1		
12.	Undov, taqlid va modal so‘zlar	1		
13.	BSB-6. "Mana endi ayting-chi?" savol va topshiriqlar ustida ishlash (50 ball)	1		
14.	“Muvaffaqiyatga erishga shaxslarning 6 siri” matni ustida ishlash	1		
15.	O‘zlashma so‘zlar	1		
16.	“Parvoz qilgan orzular” (audiomatn). Tinglab tushunish topshiriqlari ustida ishlash	1		
17.	Tanlagan kasbi bo‘yicha loyiha ishi taqdimoti (ijodiy ish)	1		
18.	Iltimos/so‘rov xati	1		
19.	“Imkoniyat berilishini kutma, uni o‘zing yarat” mavzusida ijodiy matn yaratish	1		
20.	Mustahkamlash	1		
21.	Takrorlash	1		
22.	Takrorlash	1		
23.	CHSB-4 (40 ball)			
24.	Yakuniy dars. Ta'til topshiriqlari			

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: “Yaxshilikni o‘z vaqtida qil” matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

- aniq hisob-kitoblarni bilish, o‘rganilgan mavzu doirasida grammatik jadvallarni o‘qiy olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bolalarga oromgoh juda yoqdi. Havosi toza, atrofi tog‘, hamma yoq yam-yashil maydon. Ammo aynan shu oromgohning yana bir o‘zgacha tomoni bor edi. Bu yerdagi dam oluvchilar ota-onasidan olgan puliga do‘kondan hech narsa xarid qila olmas, biroq pulni o‘zlari ishlab topishlari va uni ishiatishlari mumkin edi. Qanday qilib deysizmi? Turli musobaqalarda g‘olib bo‘lib-da! Ona tili, rus, ingliz tili, matematika bo‘yicha o‘tadigan musobaqalarda hamma o‘z bilimini ko‘rsatib yuqori o‘rin olar, ayniqsa, sport musobaqaiari fan tanlovlaridan ham taassurotga boy bo‘lardi. Albatta, har bir ishtirokchi g‘olib bo‘lishga intilardi. Jamoa bilan qatnashganda esa g‘oliblarga topshiriladigan pul jamoaning har bir a‘zosiga taqsimlanardi. Jamoaviy sport musobaqalaridan yugurish, sakrash, velosipedda manzilga birinchi yetib kelish joy olgan bo‘lib, so‘nggisi velosiped poygasi edi.

Akbar jamoasi uchun bolalarni tanlab bo'lgan. Eng tez yuguradigan - Ahror, balandlikka sakrash bo'yicha Shamshodga, uzunlikka sakrashda Botirga yetadigani yo'q. Velosiped esa Akbarning jon-u dili. Mahalladagi poygada hammadan o'zadigani ham o'zi edi. Bu to'rtlik bir necha kun ichida ancha do'stlashib olgandi. Musobaqaga jamoalar qizg'in tayyorlanar, boshqa jamoalardagi Baxtiyor va Odil degan bolalar velosipedda tinmay mashq qilishar edi. Akbarning o'rtoqlari musobaqada yutishsa, mukofot puliga shirinlik va kitob olishni o'ylab ham qo'yishdi. Lekin hammasidan ham g'alaba nashidasi yoqimliroq tuyulardi.

Mana, orziqib kutilgan kun ham keldi. Musobaqalarga start berildi. Birinchisi - yugurish poygasi. Ahror manzilga birinchi bo'lib keldi. Balandlikka sakrash bo'yicha Shamshod, uzunlikka sakrash bo'yicha Botir ham yaxshi ko'rsatkichga erishdi. Asosiysi - velosiped poygasi esa oldinda.

Akbar, Odil va Baxtiyor yo'lakda start berilishini kutib turishibdi. Mana, start berildiyu velosiped g'ildiraklari gir aylanib, bolalar bir-birlaridan o'zib ketishdi. Uchta aylanishning so'nggisi ham yaqinlashmoqda. Uzoqdan o'rtoqlarining "Akbar! Akbar!" deb baqirishlari eshitilib turardi. Akbar ancha oldinda. Shu payt shundoq yo'ldan tipratikan chiqib qolsa bo'ladimi, vaqtini topganini qarang. Biroq Akbar uni chaqqonlik bilan chetlab o'tdi. Ura! U shu so'zni aytishga ham ulgurmay orqadan velosipedning g'iyqillagan va ag'darilgan ovozi eshitildi. Ortga o'girilsa, ikkinchi bo'lib kelayotgan Odilning velosipedi ag'darilib yotibdi. Akbar nima qilarini bilmay to'xtadi. Baxtiyor ularga yaqinlashayotgan edi. Akbar onasining gapini esladi: "Yaxshilikni kechiktirmay, vaqtida qilish kerak". U darrov Odilga yordam berishga shoshildi. Bu orada Baxtiyor zuv etib o'tib ketdi. "Rahmat, o'rtoq!" - dedi Odil velosipedga o'tirayotib. U yana yo'lida davom etdi. Xayriyat, oyog'i uncha qattiq lat yemagan ekan. Finishga Baxtiyordan so'ng ozroq vaqt o'tgach, Odil va Akbar baravar kelishdi.

- Nima qilganing bu? - dedi Ahror Akbarga, - birinchilik qo'ldan ketdi-ku!

Matn mazmuni asosida topshiriqlarni bajaring.

"Oromgohning yana bir o'zgacha tomoni" nimada edi?

- A. Dam oluvchilar o'zlari pul ishlab topishlari mumkin edi.
- B. Faqat sport musobaqalari tashkil etilar edi.
- D. Havosi toza, atrofi tog'dan iborat edi.
- E. Bolalar uydagilaridan pul olib, do'kondan narsa xarid qilishlari mumkin edi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Nima uchun muallif matni "Yaxshilikni o'z vaqtida qil" deb nomlaganini izohlashga harakat qiling.
2. Matndagi "*G'alaba nashidasi yoqimliroq tuyulardi*" jumlasining ma'nosini izohlang.
3. Akbar yo'lidan chiqqan tipratikanni chetlab o'tdi. Odilning velosipedi ham o'sha tipratikan sababli ag'darilgan bo'lishi mumkinmi? Nega muallif buni ochiqklamadi?
4. Nega 1-o'rin Baxtiyorning jamoasiga berilmadi?
5. Hay'at a'zolari yana qanday qaror qabul qilishi mumkin edi?
6. Akbar to'g'ri qildi deb o'ylaysizmi? Agar Akbarning o'rnida siz bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?
7. Sizingcha, ushbu matnda qanday insoniy fazilatlar tasvirlangan?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Asar qahramonlaridan biriga tavsif yozing.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Joy nomlari imlosi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– eshitilgan yoki o'qilgan matnlardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko'nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Quyidagi sinflarda bosh harflar imlosiga doir o'rganganlaringizni eslang. Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib o'qituvchingiz yordamida bosh harflar imlosi to'g'risida qoida shakllantiring va daftaringizga yozing.

Quyidagi biriikiarni guruhlarga ajratib, imlo qoidalari asosida yozing.

Fan nashriyoti, jadid gazetasi, muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, oltin yulduz medali, bektimir tumani, navro'z bayrami, mard o'g'lon davlat mukofoti, sharq darmoni firmasi, damas avtomobili

Quyidagi savollarga javob yozing

T/R	Savollar	Javoblar
1	Qayerda yashaysiz?	***
2	Mahallangiz yoki ko'changizning nomini yozing.	***
3	Eng yaqin kishingizning ismi nima?	***
4	Qaysi oliy o'quv yurtida tahsil olishni maqsad qilgansiz?	***
5	Qaysi gazeta va jurnallarni mutolaa qilasiz?	***
6	O'qiyotgan kitobingiz qaysi nashriyotda chop etilgan?	***
7	Respublikamizdagi qaysi daryo yoki kanallarni bilasiz?	***
8	Yaqinda qaysi bayramni nishonlaymiz?	***
9	Oliy darajadagi qaysi unvon va mukofotlarni bilasiz?	***
10	Hududingizda qanday tashkilotlar faoliyat yuritadi?	***

Quyidagi so'zlarning ma'nosini aniqlang. Lug'atdan tekshirib, daftaringizga yozing.

So'zlar	Taxminim	Lug'atda
<i>o'zgacha</i>	***	***
<i>qizg'in</i>	***	***
<i>yaxshilik</i>	***	***
<i>raqib</i>	***	***
<i>hay'at</i>	***	***
<i>nashida</i>	***	***

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Tushunchalarni moslashtiring. Bosh harflar imlosi asosida yoziladigan misollarni daftaringizga yozing.

Qo'shib yozish imlosi	Ajratib yozish imlosi	Bosh harflar imlosi	Asos va qo'shimcha(lar) imlosi	Chiziqcha bilan yozish imlosi
To'rtko'l	Mustaqillik bayrami	kecha-yu kunduz	"Saodat" jurnali	
millatlararo	obro'yim	har vaqt	sakkizoyoq	
bu yerda	Xotira va qadrlash kuni	qishlog'im	o'shancha	
sovuq	Beshyog'och mahallasi	Markaziy Osiyo	sherdil	
biz-a	erta-yu kech	huquqi	masxaraboz	
to'ppa-to'g'ri	nuqtayi nazar	bir zum	"El-yurt umidi" jamg'armasi	

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: "Men shu jamiyat vakiliman" hamda "Atrofimizdagi odamlar" mavzularidan birini tanlab, ijodiy matn yozing.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

51 listdan iborat ona tili fanidan 5-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**